

O'QUVCHILARDA KREATIV FIKRLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

*Begaliyeva Mohichehra Axmatali qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Sport va chaqiriqqacha harbiy ta'lif fakulteti
Texnologik ta'lif yo'nalishi talabasi
E-mail: begaliyevamohichehra@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqola o'quvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirishga bag'ishlangan. Maqolada o'quvchilarda kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishning asosiy tushunchalari va tamoyillari muhokama qilinadi. O'quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlovchi va rag'batlantiradigan strategiya va amaliyotlar ko'rib chiqiladi. O'quvchilarning kreativ fikrlash natijalarini yaxshilashga qaratilgan turli vositalar va dasturlar haqida umumiy ma'lumot berilgan. Ushbu ma'lumotlarga asoslanib, maqolada xulosalar ishlab chiqilgan va o'qituvchilar va ota-onalarga o'quvchilarning ijoditafakkurini eng yaxshi rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: kreativ fikrlash, ta'lif, usullar, natijalar, muhokama, tafakkur, qobiliyat, individual, differensial yondoshuv, motivatsiya.

Абстрактный: Данная статья посвящена формированию навыков творческого мышления у школьников. В статье рассматриваются основные понятия и принципы формирования навыков творческого мышления учащихся. Рассмотрены стратегии и практики, поддерживающие и стимулирующие развитие творческого мышления у учащихся. Приведена общая информация о различных инструментах и программах, направленных на улучшение результатов творческого мышления учащихся. На основании этих данных в статье делаются выводы и даются рекомендации учителям и родителям, как лучше развивать творческое мышление учащихся.

Ключевые слова: творческое мышление, обучение, методы, результаты, обсуждение, мышление, способность, личность, дифференцированный подход, мотивация.

Abstract: This article is dedicated to the formation of creative thinking skills in students. The article discusses the main concepts and principles of forming students' creative thinking abilities. Strategies and practices that support and encourage the development of creative thinking in students are considered. General information about various tools and programs aimed at improving the results of students' creative thinking is provided. Based on these data, the article draws conclusions and gives

recommendations to teachers and parents on how to best develop students' creative thinking.

Key words: creative thinking, education, methods, results, discussion, thinking, ability, individual, differential approach, motivation.

Kirish:

Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni shakllantirishdir. Kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo'lishi kerak bo'lgan muhim ko'nikmadir. Bu ko'nikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o'zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari «XXI asr» ko'nikmalariga ega ishchilarni taqozo etayotgan dunyoga moslashishga ko'maklashadi. Umuman olganda, bugungi o'quvchi kelajakda hozir hatto mavjud bo'lмаган sohalarda ishlashi, yangi muammolarni yangi texnologiyalar orqali hal etishi kutilmoqda. O'quvchida kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish ularga tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkonini beradi.

Adabiyot tahlili va metodologiyasi:

Yillar mobaynida insonning bir necha sohalardagi ijodiy barkamolligining ahamiyati va uning tahlili borasida ko'plab adabiyotlar vujudga kelgan. Ushbu yozilgan adabiyotlarda berilgan ta'riflarga ko'ra, kreativ barkamollik ma'lum ijtimoiy sohaga nisbatan yangi va foydali deb qaralgan. Mustaqil hamdo'stlik davlatlari olimlaridan L.V. Igotskiy, A.Leontev, D. Elkonin, O.Vasilchenko, E.Melkumova, V.Miretskaya, M.Suxomlinova, E.Emmanuel kabilarining ilmiy ishlarida shaxs ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari o'rganilgan. E.P.Torrance, N. Rogers, J.Purnell, P.Roberts, A.M.Galligan, Sh.Tatsuno kabi xorijiy olimlarning ishlarida shaxsning kreativ qobiliyatları, ijodiy salohiyatini namoyon etish masalalari ochib berilgan. Ularning fikriga ko'ra, ijodiy faoliyat bilan bog'liq fikrlash jarayonlarida mashg'ul bo'lish deb tushunilgan kreativ fikrlash bir qator boshqa shaxsiy ko'nikmalarning ham rivojlanishiga olib keladi. Shular jumlasiga metakognitiv qobiliyat, insonlar bilan muomala qilish va shaxsning o'zini yaxshiroq anglash ko'nikmalari, muammoni hal etish ko'nikmalari kiradi. Shu bilan birga shaxs kamoloti, ta'lim olishdagi muvaffaqiyati, kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyati va jamoatchilik orasidagi obro'si ham insonning kreativ fikrlash ko'nikmasiga bog'liq.

Natijalar:

Kreativ kompetentlikni shakllantirishda pedagogik asoslarni taraqqiy ettirishning zamonaviy bosqichida umumta'lim maktabi o'quvchilari kompetentlikini ta'minlashning usulologik talablari hamda didaktik shart-sharoitlarini belgilashda yangi yondoshuvga asoslangan o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish zarurati yuzaga kelganligini ko'rsatmoqda. Bunda o'quvchilar kreativ kompetentlikini

rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari quyidagilarga asoslanadi: nazariy bilimlarning amaliy ko'nikma va malakalarga o'tib borishi ustuvorligi; ta'limiylar, tarbiyaviy hamda rivojlantiruvchi muhitning birligi; ta'lim olish hamda ijodiy faoliyatga bo'lgan ijobiy motivatsiyani rag'batlantirish; muammolilik; individual hamda differensial yondoshuvlarning uyg'unligi; ta'lim shaxs faolligini ta'minlashga yo'naltirilganligi; ta'lim mazmuni hamda o'quv-didaktik materiallarning o'quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilganligi.

Pedagogning kreativ potensiali an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Tafakkurning tezkor va egiluvchanligi.
2. Yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati, bir qolipda fikrlamaslik.
3. Tashabbuskorlik-o'ziga xoslik.
4. Noaniqlikka toqat qilish.
5. Zakovatli bo'lish.

Pedagogik kuzatuvga asoslangan pedagogik texnologiya uni to'g'ri amalgalashish asosida erishilishi lozim bo'lgan imkoniyatlar chegarasini belgilab beradi. O'quvchilarda ahamiyatli sifatlarini shakllantirishni yanada samaraliroq tashkil etish ta'lim jarayoniga yangi mashqlar va treninglarni joriy etishni taqozo etadi. Bundan tashqari, pedagogik kuzatuv ta'lim texnologiyasida mavjud ayrim nuqsonlarni bartaraf etish imkonini beradi. O'quvchilarning kreativligi ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlarida, ayniqsa ijodiy fikrlash jarayonining aksariyati "ko'rinas" vazifalarni bajarishda namoyon bo'ladi. O'quvchining ijodiy barkamolligi uning kreativ fikrlash jarayonini muvaffaqiyatli amalgalashish yoki oshmaganini aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Muhokama:

Kreativ fikrlaydigan avlodni tarbiyalashda ma'lumotni o'rganish va talqin qilish qobiliyatini egallash yetarli emas, ularni yangi bilimlarga aylantirish va hayotda qo'llay olishlari muhimdir. Zamonaviy rivojlangan muhit bizni yangi sifatda qayta tarbiyalamoqda: insonni eng yuksak qadriyat deb tan olib, uning taqdiri, boshqalarning taqdiri, shaxsning ongini o'zgartirish, har bir olayotgan axborotini tabiat, jamiyat va o'z-o'ziga bo'lgan munosabati orqali idrok etishi olinayotgan bilimlarning ahamiyati va xotirada qolish jarayonida muhim omil sanaladi.

Bularning barchasi nafaqat ta'limning mazmuni va shakllarini qayta ko'rib chiqishni, balki ushbu sohada ko'plab qadriyatlardan voz kechishni, ularni zamonga va kishilarning yangicha dunyoqarashiga moslashtirishni taqozo etmoqda. Tomas Edison "Kreativlik — g'ayriixtiyoriy jarayon", deydi. Lekin har kuni ko'plab mutaxassislar muammolarga noodatiy yechim topishga zaruriyat sezadi. Ular mana shu g'ayriixtiyoriy jarayonni ixtiyoriy lashtirishi mumkinmi? Tabiatda yangi fikrlarni yuzaga keltiruvchi "sehrli tayoqcha" yo'q, biroq har qanday mutaxassisning kreativ

o'ylashiga ko'maklashadigan ko'plab usullar mavjud. Buning uchun ijodiy fikrlashga vaqt ajratish, ijodiy salohiyatni anglash lozim. Darsda o'quvchilarning ham aqliy, ham jismoniy faol bo'lishlariga yordam bera oladigan didaktik o'yinli texnologiyalardan foydalanish esa ularning o'qishga bo'lgan ishtiyoqini va motivatsiyani oshirishga yordam beradi. Aynan mavzuga mos bo'lgan, o'quvchilar yoshiga mos keladigano'yinlarni tanlash va qo'llash orqali ijobiy natijalarga erishish o'qituvchining mahoratiga bog'liq bo'ladi. O'quv jarayonida foydalaniladigan didaktik o'yinlar sinfda guruh a'zolari yoki individual ishtirokchilar o'rtasidagi raqobatni rivojlantirishga va bu orqali darsga bo'lgan qiziqishni oshirishga yordam beradi. Didaktik o'yinli metodni guruhlarga bo'lgan holda amalga oshirish va buning natijasida o'yin ishtirokchilari orasida yuzaga kelgan sog'lom raqobat ularda liderlik qobiliyati, muammoning yechimini topishda eng samarali usulni tanlash, yechimlar orasidan eng samaralisini tanlash imkonini beradi.

Xulosa:

Ta'lim sohasida olib borilgan bir qator izlanishlar orqali bilim va ko'nikmalarning hosil qilinishi ehtimolini oshiradigan o'qitish yoki o'rganishning turli usullari tadqiq etildi. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kreativ fikrlash bilim va ko'nikmalarни hosil qilishga imkon beruvchi jamoaviy muhitda birgalikda ishslash orqali samarali rivojlantirilishi mumkin. Boshqacha aytganda, maktablar bilim va ko'nikmalarни hosilqiluvchi tashkilot sifatida faoliyat ko'rsatib, unda o'quvchilar yangidan-yangi g'oyalar bilan sug'orilgan ijodiy va muntazam faoliyat turi bilan faol shug'ullanadi. Qachonki bilim hosil qilish jarayoni ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lgan maqsadli faoliyatga, ya'ni kundalik faoliyat turiga aylansa, o'quvchi yangidan-yangi fikr-mulohazalari va mazkur fikr-mulohazalarni doimiy rivojlantirib boradigan amaliy faoliyatlar bilan jamiyat rivojiga o'z hissasini qoshadi. Xulosa kilib aytganda, kreativ fikrlash jamiyat hayotida muhim o'ringa ega bo'lgan, shaxsning tafakkuri bilan bevosita bog'lik bo'lgan jarayon hisoblanib, shaxsda, ayniqsa yoshlarda ushbu ko'nikmani shakllantirish kelgusida mamlakat taraqqiyotining muhim elementlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ashurova S.Yu. Professionaltnaya kompetentnostb kak ob'ekt otsenki// Molodoy uchentiy. - 2012. - № 4. - S. 414-417.
2. Azizzxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va ped mahorat. T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2003 - 176 b.
3. Davlatov K., Vorobei A.I., Karimov I. Mehnat va kasb ta'limi nazariyasi hamda usulikasi. - T.: O'qituvchi, 1992. - 320 b.
4. Khotamov I.S., Olimov M.K., Madrahimova G.R. Kreativ fikrlash. – Toshkent, 2021.
5. Safarova M.A. Talabalarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish imkoniyatlari va ularning tarkibiy asoslari, FTAI. ISSN: 2181-1776, Aprel 2021.

6. Toshtemirova S. A. (2020). Ta'lim sifati va uni demokratlashtirish ilmiy muammo sifatida // Uzluksiz ta'lim. № 1 (86). - S.5.
7. Креативное мышление в бизнесе. – М.: Альпина Бизнес Букс, 2006.
8. Gafforov Ya. X. (2019). Technical approach in the education system. International journal on Integrated Education. England. 2019. 40-41.
9. Paul Romer, «Ideas and Things,» Economist, September 11, 1993, online version, p. 2.